

ONA TILI FANINI INTEGRATSIYA ASOSIDA O'QITISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Mamarajabova Ozoda Zokir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: S. Pardayev

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishida zamonaviy ta'limda integratsiya tushunchasi hamda ona tili fanini integrativ tarzda tashkil etishning metodologik asoslari, o'qituvchilar faoliyatida integratsiyalashgan darsni tashkil etishning ahamiyati va bu jarayon orqali o'quvchilarning fikrlashi, tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni haqida tahlil qilinadi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim asosida o'qitishning samaradorligini oshirishga yordam beruvchi metodlar hamda texnologiyalar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, metod, fanlararo bog'liqlik, innovatsion texnologiyalar, integratsiyalashgan ta'lim,*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar, global axborot oqimining kuchayishi, kompetensiyaviy yondashuv asosida bilim berish zarurati, ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani taqozo etmoqda. So'nggi yillarsa har bir fanni integratsiya asosida o'qitish zamonaviy ta'limning asosi bo'lmoqda. Integratsiyalashgan ta'lim tizimining asosiy vazifasi esa o'quvchilarda keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. Ona tili fani esa bu jarayonda markaziy o'rin tutadi. Chunki til nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur, madaniyat va bilishning asosi hisoblanadi. Shu sababli ona tili fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish o'quvchilarning fikrlash, tushunish va ijodiy yondashish, muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. Integratsiya (lotincha integrare — birlashtirmoq, yaxlitlash) — bu o'quv fanlari mazmunining o'zaro bog'lanishi, ular orasidagi mantiqiy, mazmuniy va funksional aloqalarni mustahkamlashdir. Ta'lim jarayonida integratsiya ikki yo'nalishda kechadi: gorizontalar (fanlararo) va vertikal (fan ichidagi) integratsiya.

Ona tili darslarini faqat grammatik bilimlar bilan cheklash bugungi kun talablariga javob bermaydi. Integratsion yondashuv orqali o'quvchi nafaqat so'zning tuzilishini, balki uning badiiy, tarixiy va ijtimoiy mazmunini ham anglay oladi. Masalan: adabiyot bilan integratsiya tilning badiiy imkoniyatlarini ochadi; tarix bilan integratsiya milliy o'zlikni anglashni kuchaytiradi; texnologiya va informatika bilan integratsiya zamonaviy kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi. “Keyingi yillarda ta'limda integrative yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko'plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini integrative o'qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta'lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar ko'ndalang qo'yildi. Xususan, A.G'ulomov, H.Ne'matov, B.Ziyomuhammadov, B.Abdullayeva singari olimlarning ishlarida integratsiyaning ona tili va

adabiyot ta'limidagi o'rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. K.Mavlonovanning "Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari" bo'yicha olib borgan izlanishlari alohida ahamiyatga ega [1.280]. Ona tili ta'limini integratsiya asosida tashkil etishda quyidagi metodologik tamoyillar muhim ahamiyatga ega: ilmiylik va tizimlilik, fanlararo bog'liqlik, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish hamda kommunikativ yondashuv. Bundan tashqari butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlari AKT dan foydalanish bo'yicha bosim kuchayib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. "AKT o'quvchilarning bilim bilan faol, o'z-o'zini boshqarish va konstruktiv tarzda muomala qiladigan o'quv-ta'lim jarayonini o'zgartiradigan kuchli ta'lim muhitini yaratishi mumkin. Texnologiya bolalarni bilimlar jamiyatiga tayyorlash uchun muhim bo'lgan ma'lumotni qidirish va baholash, hamkorlik, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalari kabi ta'lim maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun vosita sifatida ishlatilishi kerak" [2. 5]. Ona tili fanini integrativ tarzda tashkil qilishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish ham darsning samaradorligin oshiradi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Konseptual xarita", "Rolli o'yinlar", "Munozara", "Loyiha ishi". Yuqorida keltirilgan metodlar orqali dars o'tilganda o'quvchilar yangi mavzuni xotirada saqlab qolish foizi ancha ko'pni tashkil qiladi va bu bilan birga bu metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash va erkin bayon qila olish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Integratsiyalashgan o'qitish quyidagi natijalarga olib keladi:

- *o'quvchilar tilni chuqur tushunadi va muloqotda faol qo'llay oladi;

- *tafakkur, tahlil, solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalari shakllanadi;

- * ona tili faniga qiziqish ortadi;

- * o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

" Davlat ta'lim standartlarida o'quv fanlari orasidagi aloqadorlik, ona tili fanining boshqa o'quv fanlarini o'rganishga ta'siri qayd etilib, " Ona tili o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishda aniq fanlar yo'nalishidagi fanlarni o'rganishga ijobiy ta'sir" ko'rsatishi uqtirilgan [3. 703]. Uzlüksiz ta'limda bu yondashuv: maktabgacha ta'limda – so'z boyligini shakllantirish va og'zaki nutqni rivojlantirishda, umumiy o'rta ta'limda – savodxonlik, tahlil, muloqot, yozma nutq ko'nikmalarini chuqurlashtirishda, kasb-hunar va oliy ta'limda – ilmiy nutq, kasbiy kommunikatsiya, hujjatli tilga tayyorgarlikda qo'llaniladi. Shu boisdan, uzluksiz ta'limda ona tilini integrativ yondashuv asosida o'qitish xalqaro standartlarga mos, zamonaviy, innovatsion ta'limning zaruriy talabi hisoblanadi. Bu yondashuv orqali o'quvchi bilimni yodlash emas, balki tushunish, bog'lash va qo'llashga o'rganadi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ona tili fanini integratsiya asosida o'qitish — bu faqat ta'lim texnologiyasi emas, balki o'quv jarayoniga yangicha metodologik yondashuvdir. U o'quvchilarning tilni bilish va qo'llash qobiliyatini, tafakkur va nutq madaniyatini, ijtimoiy faoliyatga tayyorlik darajasini oshiradi. Shu bois, har bir o'qituvchi integratsion yondashuvni o'z dars amaliyotiga joriy etar ekan, fanlararo bog'liqlikni chuqur tahlil qilishi va zamonaviy metodlarni ijodiy qo'llay bilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedxanova G. Ona tili va adabiyot darslarida integrative yondashuvning ahamiyati. Central Asian academic journal of scientific research.volume2,issue 1.-2022. B 280
2. Rasulov I. Ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining o'rni. Central Asian academic journal of scientific research.12-son, 2022. B 5.
- 3.Yusupova A.M. Ona tili darslarini integratsiya usullarida tashkil qilish. Экономика и социум. №12, 2021. B 703.
4. Tursunova M. Ona tili ta'limida innovatsion metodlar. – Samarqand, 2021.